

PAXTAOBOD TUMANI IQTISODIYOTIDA YETAKCHI TARMOQLAR

Sobirjonova Muslina Solijon qizi, Sarikulov Mirkomil Olimovich

Andijon Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich talabasi

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya va geografiya o'qitish metodikasi
kafedrasи o'qituvchisi*

Andijon shahri Do'stlik ko'chasi 2-uy

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyatining Paxtaobod tumani iqtisodiyotida yetakchi tarmoqlari, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda biznesning hissasi , iqtisodiyotda yengil sanoatning ahamiyati haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: Paxtaobod, xususiy tadbirkorlik , KONTEKS, sanoat korxonalarini, Pahtaobod ip-mato kombinasi .

LEADING SECTORS OF THE ECONOMY OF PAXTAOBOD DISTRICT

Abstract: This article talks about the leading industries in the economy of Pakhtabad district of Andijan region, the contribution of business in the production of industrial products, the importance of light industry in the economy.

Key words: Pakhtabad, private entrepreneurship, KONTEKS, Industrial enterprises, Pakhtaabad yarn-fabric combine.

Kirish: Paxtaobod tumani Andijon viloyatining shimoliy-sharqida joylashgan. Shimoliy va shimoliy-sharqdan Qirg'iziston respublikasining Jalolobod viloyati, g'arbdan Izboskan tumani, janubdan Andijon tumani, sharqda (58 km masofada) Qirg'iziston Respublikasi va Jalaquduq tumanlari bilan chegaradosh. Paxtaobod tumani viloyat markazi Andijon shahridan 24 km shimoliy-sharqda bo'lib, dengiz sathidan 300 metr balandlikda joylashgan. Iqlimi mo'tadil Paxtaobod tumanini Qoradaryo, Tentaksoy, Chirtaksoy daryolari kesib o'tadi.Paxtaobod tumani 1926-yil 24-dekabrda tashkil qilingan.1962-yil 24-dekabrda Izboskan tumani bilan birlashtirilgan. 1970-yil 7-dekabrda yana yangidan tashkil qilingan.Umumiy yer maydoni -259.9 kv.km.Aholisi-211,7 ming kishi.

Iqtisodiyoti: Asosan paxta, bug'doy meva, sabzavotlar ishlab chiqarish, shuningdek, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Bu sohada ayniqsa paxta yetishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Dehqonchillik faoliyati nafaqat iqtisodiyotni rivojlantiradi, balki aholini oziq-ovaqat bilan ta'minlashda muhim ro'l o'yndi. Bu yerda ekinlardan olingan hosilning katta qismi mahalliy bozorga yetkazib beriladi. Sanoat va xizmatlar sektori esa nisbatan kichikroq bo'lib, tuman iqtisodiyotining diversifikatsiyasi uchun yanada ko'proq imkoniyatlar mavjud. Paxtaobod tumanida transport infratuzilmasi yaxshi rivojlangan bo'lib, tuman orqali viloyat markaziga va boshqa hududlarga avtomobil yo'llari o'tadi.

Пахтаобод тумани худудини СХЕМАТИК ХАРИТАСИ



1-rasm. Paxtaobod tumani hududi sxematik xaritasi.

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2024-yilning yanvar - sentabr oylarida Paxtaobod tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 897.8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105.3 foizni tashkil etdi.

1-jadval.

	Andijon viloyati		Paxtaobod tumani		Paxtaobod tumanining Viloyatdagi ulushi, % hisobida	
	mlrd so'm	2023-yil yanvar-sentabrga nisbatan % da	mlrd so'm	2023-yil yanvar-sentabrga nisbatan % da	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr
<i>Sanoat mahsuloti</i>	61985.1	108.2	897.	105.3	1.7	1.5
<i>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	31888.1	102.7	2806.9	102.9	8.8	8.8
<i>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</i>	19161.4	129.4	693.1	149.8	3.1	3.6
<i>Qurilish ishlari</i>	8439.5	106.1	295.4	113.4	3.3	4.9
<i>Chakana savdo tovar aylanmasi</i>	18107.5	109	668.1	107.9	3.7	3.9
<i>Xizmatlar, jami</i>	28536.1	112.9	716.9	113	2.6	3.8
<i>Eksport (mln AQSH. doll)</i>	830.4	95.5	24.5	179.1	1.6	2.9
<i>Import (mln AQSH. doll)</i>	2184.2	79.5	5.9	105.2	0.2	0.3

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi tumanda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va uni rag'bantlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borilishi, o'z navbatida kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining doimiy o'sib borishiga sabab bo'lmoqda .

2024-yilning yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 328.1 mlrd. so'm bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 36.5 % ni tashkil etgan.

2-jadval.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi

	Sanoat mahsuloti hajmi		Tarmoq korxonalarini		Hududiy korxonalar	
	Hajm, mlrd. so'm	o'sish sur'ati % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi, % da	Hajm, mlrd. so'm	ulushi %da
Andijon viloyati	61985.1	108.2	44475.4	71.8	17509.7	28.2
Paxtaobod tumani	897.8	105.3	58.4	6.5	839.4	93.5

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra Paxtaobod tumanida 2024- yilning 1-oktabr holatiga ro'yhatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 2224 tani tashkil qilib , shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 1248 tani yoki jami ro'yhatga olingan yuridik shaxslarning 56.1 foizini tashkil qildi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi sanoatda 369 ta (16.6 foizi), savdo 837 ta (37.6 foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 273 ta (12.3 foizi) va qurilish 109 ta (4.9 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlari soni 1938 tani tashkil etib, shundan 975 tasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek , 2024-yil yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 135 tanitashkil etadi. O'z navbatida faoliyatini tugatgan kichik biznes subyektlari

soni 38 tani tashkil etmoqda. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan kichik tadbirdorlik subyektlarining asosiy qismi sanoat 366 ta ni tashkil etadi. Andijon viloyati Paxtaobod tumanining chekka Uyg'ur qishlog'ida "KONTEKS" korxonasining ochilishi aholi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Boisi, ishlab chiqarish korxonasida 400 nafar ishchi o'rni yaratildi. Korxona faoliyati trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'jjallangan bo'lib, bugungi kunda jamiyatda 150 xildan ortiq kiyimlar sifatli tayyorlanib, iste'molchilarga yetkazib berilmoqda. Ishlab chiqarilganrikotaj mahsulotlarining 80 foizini Fransiya, Polsha, Rossiya, Litva va Belarusiya kabi Yevropa davlatlariga eksport qilayotgan „KONTEKS” ichki bozorimizni sifatli kiyimlar bilan to'ldirishga ham salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Korxonaning 2015-yilda eksport hajmi 9,5 mln . AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa bu raqam 2016-yilda 12,3 mln AQSH dollarga teng bo'ldi. Hozirda bu ko'rsatkichlar anchagina dollarga oshdi.

Paxtaobod tumanidagi ip yigiruv kombinati O'zbekistonning paxta sanoatining muhim tarmog'idan biri hisoblanadi. Bu kombinat paxta tolasidan ip, mat ova boshqa ip mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Kombinat ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik jarayonlari yuqori bo'lib, u nafaqat ichki bozor uchun, balki eksportga ham mahsulotlar yetkazib beradi.

Xulosa va takliflar: Andijon viloyati Paxtaobod tumani iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan O'zbekistondagi muhim hududlardan biridir. Paxta sanoati va ip yigiruv kombinati, shuningdek boshqa sanoat tarmoqlari tuman rivojlanishining asosiy poydevori hisoblanadi. Birinchidan, tumanda Qoradaryo, Tentaksoy va Maylisoy daryolari oqib o'tganligi tufayli 1616,7 ming kub maydonda shag'al va qumlar yuzaga kelgan. Albatta bu mahsulotlarni qayta ishlab chiqaruvchi mehanizmlarni keltirib qurilish xom-ashyolari ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'sh turgan yerlarga issiqxona va bog'lar tashkil qilish, intensiv usulida dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligini tashkil etish, hududda yangi ish o'rnlari yaratilishiga zamin bo'ladi. Amalda foydalanilmayotgan yerlarda oromgohlar, jamoat bog'lari yoki boshqa yashil hududlar yaratish, aholining turmush sifatini yaxshilash va ekologik muvozanjni saqlashda yordam beradi. Albatta

tumanda mehnat resurslarini ko`pligini hisobga olgan holda, yengil sanoat tarmoqlarinigina emas, balki og'ir sanoat tarmoqlarini ham rivojlantirish dolzARB hisoblanadi. Tehnikalar va mashinalarga ehtiyyot qismlar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishni yo'lga qo'yish va chetga eksport hajmini kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarikulov M. O, Olimov O. B SWOT ANALYSIS OF PAKHTAOBOD DISTRICT, MAIN MACROECONOMIC INDICATORS AND AGRICULTURAL PRODUCTION VOLUME ANALYSIS. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal VOLUME 9, ISSUE 2, Feb. -2023
2. Department of macroeconomics of Pakhtaabad district government.
3. Булатов А.С. Экономика. —М.: «БЕК». 1996.
4. Липес Ю.Г., Пуляркин В.А., Шлихтер С.Б. География мирового хозяйства. — М.: ВЛАДС. 1999.
5. Soliyev A. S., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy va sotsial geografiyaning amaliy va nazariy masalalari. «Guliston», 1999.